


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**70410601 – Bank ishi magistratura mutaxassisligining**

***MALAKA TALABI***

**Toshkent-2024**



**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil “1” 08 dagi 277 – sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	bet
<b>1. Umumiyl tavsifi.....</b>	4
1.1. Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....	7
3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar .....	8
4. Fanlar katalogining tuzilishi .....	9
Bibliografik ma'lumotlar.....	10
Kelishuv varag'i.....	11

## **1. Umumiy tavsifi**

70410601 – Bank ishi mutaxassisligi bo‘yicha magistlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta’limda magistratura dasturining me’yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talablari 70410601 – Bank ishi mutaxassisligi bo‘yicha magistlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilarini:**

Mazkur mutaxassislik bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilar;

mutaxassislikning o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

Barcha ta’lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o‘qitish, Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o‘qitish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy va iqtisodiy ilmiy-tadqiqot institutlarida, bank-moliya sohasi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot institutlarida, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida, tijorat banklarida, nobank kredit muassasalarida, byudjetdan tashqari fondlarda, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari xududiy boshqarmalarida, viloyat, shahar, tuman va minibank bo‘linmalarida kompleks masalalarni yechish usullarini qamrab oladi.

#### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

Bank-moliya tizimi va nobank kredit tashkilotlari, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va soha korxonalarida iqtisodchi.

70410601 – Bank ishi magistratura mutaxassisligi bo‘yicha bitiruvchilar oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, ta’limning vakolatli boshqaruv organlari

tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliv ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning hududiy boshqarmalarida iqtisodchi va boshqaruv organlari;

tijorat banklari moliyaviy boshqaruv organlari;

nobank kredit muassasalari iqtisodchi, tashkilotchi va moliyaviy boshqaruv organlari;

davlat va mahalliy boshqaruv organlari, iqtisodiyot va moliya boshqarmalarida moliyaviy boshqaruv;

ilmiy, texnikaviy va texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bilan bog'liq akademik, ilmiy tadqiqot va muassasa tashkilotlarida moliyaviy boshqaruv organlari;

turli mulkchilik shaklidagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida moliyaviy boshqaruv;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarning moliyaviy rivojlanish jarayonlari.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *ilmiy–tadqiqot;*
- *pedagogik;*
- *moliyaviy-iqtisodiy;*
- *hisob, tahlil va nazorat;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *ishlab chiqarish va xizmat ko 'rsatish;*
- *konsalting xizmati;.*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

70410601 – Bank ishi mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obektlari va turlariga muvofiq, magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatida:**

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferentsiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirot etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning kontseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

**Moliyaviy-iqtisodiy hamda tahlil va nazorat faoliyatida:**

bank tizimi barqarorligini ta'minlashi va uni modernizatsiyalash orqali rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqishi, davriy iqtisodiy inqirozlarga qarshi choralar ishlab chiqishi va qo'llay olishi;

tijorat banklari aktivlari va passivlari boshqarish va unga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish, prognozlash va qaror qabul qila olishi;

pul agregatlari, multiplikatorlari, indikatorlarini hisoblashni bilishi, pul muomalasini tashkil qilish, boshqarish va barqarorlashtirish usullarini bilishi;

pul-kredit siyosati instrumentlaridan foydalanishni, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini tahlil qila olishi;

inflyatsion targetlash printsip va mexanizmlarini bilishi va uning iqtisodiyotga ta'sirini aniqlay olishi;

tijorat banklarida moliyaviy rejalarini, yig'ma moliyaviy balanslarni, asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishi, qaror qabul qilishi, kelgusi moliya yili va belgilangan davr uchun rejalarini ishlab chiqishi, tatbiq etishi va monitoring qila olishi;

tijorat banklarining emission-investitsion faoliyatini tashkil qilish va bank ehtiyojlari uchun investitsiyalarni jalg qilish, boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishi hamda uni amalga oshirishi;

bank risklarini baholash, boshqarish va qaror qabul qilish qobiliyatlariga ega davlat, mahalliy hukumat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasini xavfsiz boshqarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;

bank operatsiyalari, bank xizmatlari bozori faoliyati monitoringini olib borish, banklarda ichki nazorat va audit tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini baholash, qonunbuzarliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish.

**Tashkiliy-boshqaruva hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

e-leaming va m-leaming texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish;

ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

ishlab chiqarish jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog’liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

tijorat banklari faoliyatini boshqarish va ular tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalarning Markaziy bank hamda xalqaro talablarga mos kelishini nazorat qilishda ishtirok etish.

#### **Konsalting xizmati faoliyatida:**

Moliyaviy-iqtisodiy faoliyat sohasida mavjud holatning tahliliy sharhini ishlab chiqish;

moliyaviy-iqtisodiy faoliyat sohasida mutaxassislikka mos bo‘lgan mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo‘yicha ekspert guruhlarida rais (ishtirokchi) sifatida qatnashish;

mutaxassislikka mos mavzular bo‘yicha konsalting xizmatlarini ko‘rsatish.

#### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

axborotlarni yig‘ish va ularni qayta ishslash;

moliyaviy-iqtisodiy o‘zgarishlar ularning ta’sirini sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish, oqibatlarini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash;

o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilish, ulardan ilmiy faoliyatda foydalana olish;

iqtisodiy va moliyaviy masalalar yuzasidan ijtimoiy fikrni shakllantirish hamda milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari nuqtai nazarini o‘rganish borasida tahliliy ishlar olib borish;

moliyaviy boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.

#### **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.**

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishslash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferentsiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

bank-moliya sohasida faoliyatni tashkil etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

bank-moliya sohasiga tegishli mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fantexnika yutuqlarini, maxsus adabiyotlarni va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o‘rganish;

mavzu bo'yicha iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishslash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

internet tarmog'idan eng yangi ilmiy-texnik yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni tuplaydi va tahlil qilish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyatga qo'llash;

bank aktivlari va passivlarini boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

markaziy bank monetar siyosati indikatorlarini tahlil qilishi va ta'sir qiluvchi omillarni baholash olishi;

tijorat banklari va ularning filiallari tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

bank-moliya sohasi faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

bank-moliya sohasida jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish;

bank-moliya sohasida faoliyat ko'rsatish va ular faoliyatining xalqaro hamda milliy talablariga mos kelishi borasida jarayonlarni nazorat qilish;

kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyatga tatbiq etish;

fikrlar har hil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

bank-moliya sohasining xalqaro hamda milliy mosligini monitoring qilish;

bank-moliya sohasi faoliyatini rejalashtirish va uning samaradorligini oshirishning ichki imkoniyatlarini qidirib topish;

bank-moliya sohasi faoliyatini boshqarishning zamonaviy muammolari va xususiyatlarini aniqlash, ular faoliyatini boshqarishning zamonaviy yo'nalishlarini ishlab chiqish;

bank-moliya sohasi faoliyatini tashkil qilish, baholash va auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishda zamonaviy metodlarni qo'llash;

bank-moliya sohasida jarayonlarni hisobga olishda, moliyaviy-xo'jalik faoliyati va audit ishi sifatini baholashda zamonaviy hisoblash vositalaridan foydalanish;

bank-moliya sohasi faoliyatini tahlil qilish;

bajarilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha bank-moliya sohasining yutuqlarini hisobga olgan holda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni iqtisodiy espertizadan o'tqazish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

### **3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Ilmiy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli ilmiy-tadqiqot va amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti
2. Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash

#### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiyluklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>			
1.01	ITM1105	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	150	5	1
1.02	MFO‘M1105	Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi	150	5	1
1.03		Xalqaro valyuta operatsiyalari	150	5	1
1.04		Banklarda korporativ boshqaruv	150	5	1
1.05		Banklarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari	150	5	2
1.06		Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarish	150	5	2
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>900</b>	<b>30</b>	<b>2,3</b>
<b>2.00</b>		Tanlov fanlar	900	30	2,3
<b>Kvalifikatsiya</b>		<b>Iqtisodchi (pedagog-tadqiqotchi)</b>			
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
		Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti	600	20	1,2,3,4
		Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash	1200	40	1,2,3,4
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruhi T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, mutaxassislik, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, bank-moliya tizimi, nobank tashkilotlari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, magistraturaning o'quv jarayoni, bank, iqtisodiyot, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot jarayoni, tashkiliy-boshqaruv, moliyaviy-iqtisodiy, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, hisob, tahlil va nazorat, konsalting xizmati, axborot-tahliliy faoliyat, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot usullari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari


**ISHLAB CHIQILGAN:**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Rektor prof. T.Z. Teshabayev  
2024 yil




**KELISHILDI:**

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi  
Direktor M.Boltabayev



"Mikrokreditbank" aksiyadorlik  
tijorat banki Boshqaru  
raisi o'rinnbosari v.b



I.K. Djumaniyazov

2024 yil « 15 » » 06

"Poytaxt bank" aksiyadorlik  
jamiyati Boshqaru raisi



X.U. Raxmatov

2024 yil « 25 » » 06